

## TIL KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA SUN'Y INTELLEKTNING AHAMIYATI

**Maxamadyaminova Fotima Ravshan qizi**

maxamadyaminovaf@gmail.com

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 3-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada bugungi kunda ommalashib borayotgan sun'y intellektning (SI) til kompetensiyasini rivojlantirish borasidagi tutgan muhim o'rni, uning kompyuter lingvistikasi o'rtasidagi o'zaro aloqasi, hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining til o'rgatish hamda o'rganish sohasidagi ahamiyati haqida tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** sun'y intellekt, til kompetensiyasi, kompyuter lingvistikasi, sun'iy intellekt texnologiyalari, avtomatik tarjima.

**Аннотация:** В данной статье анализируется важная роль искусственного интеллекта (ИИ), который в настоящее время приобретает всё большую популярность, в развитии языковой компетенции. Также рассматривается его взаимосвязь с компьютерной лингвистикой и значение технологий искусственного интеллекта в процессе обучения и изучения языков.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, языковая компетенция, компьютерная лингвистика, технологии искусственного интеллекта, автоматический перевод.

**Abstract.** This article analyzes the important role of artificial intelligence (AI), which is becoming increasingly popular today, in the development of language competence. It also examines its relationship with computational linguistics and highlights the significance of AI technologies in the process of language teaching and learning.

**Keywords:** artificial intelligence, language competence, computational linguistics, AI technologies, machine translation.

**Kirish.** Bugungi rivojlanib borayotgan XXI asr davrida dolzarb hisoblangan ta'lim sohasini hech qanday raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilish deyarli imkonsiz. Chunki sun'iy intellektning yaratilishi ko'proq til sohasida ancha qulayliklar yaratdi, jumladan: til o'rganuvchilar uchun individual va interaktiv ravishda o'z maqsadlariga yetishishda asos vazifasini bajarmoqda.

**Asosiy qism.** Til kompetensiyasi — bu shaxsning tilni anglash, undan samarali foydalanish, shuningdek, muloqot jarayonida grammatik, leksik, fonetik va madaniy komponentlarni uyg'un holda qo'llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Zamonaviy sharoitda ushbu kompetensiyani rivojlantirishda kompyuter lingvistikasi va sun'iy intellekt texnologiyalarining ahamiyati beqiyosdir.

Kompyuter lingvistikasi va sun'iy intellekt o'rtasidagi o'zaro integratsiyasi. Kompyuter lingvistikasi — tilshunoslik, matematika hamda informatika fanlari kesishmasida shakllangan fanlararo yo'nalish bo'lib, tabiiy til ma'lumotlarini kompyuter vositasida qayta ishlash, tahlil qilish va modellashtirish masalalarini o'rganadi. Ushbu sohaning asosiy maqsadi inson tilini mashina orqali anglash va qayta ishlash jarayonlarini takomillashtirish, ya'ni kompyuter tizimlarini inson nutqiga yaqin darajada ishlashga moslashtirishdan iborat.

Quyida asosiy vazifalari:

1. Matnlarni avtomatik tahlil qilish
2. Nutqni (ovozni) matnga aylantirish
3. Matni boshqa tilga tarjima qilish
4. Chatbotlar va virtual yordamchilar yaratish

Sun'iy intellekt mazkur jarayonning amaliy asosini tashkil etib, tabiiy tilni qayta ishlash, nutqni tanib olish, avtomatik tarjima hamda chatbot texnologiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Jumladan, ChatGPT, Google Translate, Train chinese, Duolingo, Gemini va Replika kabi platformalar kompyuter lingvistikasining amaliy tabiiqini namoyon etadi.

Sun'iy intellektning til kompetensiyasini rivojlantirishdagi imkoniyatlari. Sun'iy intellekt texnologiyalari til o'rganish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatib, uni quyidagi yo'nalishlarda takomillashtirmoqda:

1. Individual yondashuvni ta'minlash: O'quvchilarning bilim darajasi, leksik zahirasi va grammatik tayyorgarligidan kelib chiqib moslashtirilgan topshiriqlarni taqdim etadi. Shu bilan birga, tizimlar xatolarni aniqlab, shaxsiylashtirilgan tahlil va tavsiyalarni ishlab chiqadi.

2. Talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirish: Nutqni tanish texnologiyalari orqali o'quvchilarning talaffuzi baholanadi, xatolar aniqlanadi hamda ularni bartaraf etish uchun takroriy mashqlar tashkil etiladi.

3. Avtomatlashtirilgan tahlil va teskari aloqa: Zamonaviy dasturiy vositalar yozma nutqdagi grammatik, leksik va stilistik xatolarni aniqlab, ularni tuzatish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar beradi.

4. Sun'iy nutqiy muhitni shakllantirish: Chatbotlar va virtual suhbat tizimlari yordamida o'quvchilar real muloqotga yaqin sharoitda amaliyot olib borib, kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bu esa til o'rganish jarayonidagi ruhiy to'siqlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Kompyuter lingvistikasi yutuqlarining ta'limdagi roli: Kompyuter lingvistikasi nafaqat texnologik, balki didaktik jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishda yaratilgan dasturlar o'qituvchi va o'quvchilar uchun samarali vosita bo'lib xizmat qilib, ta'lim jarayonini optimallashtiradi va tahlil imkoniyatlarini kengaytiradi.

Masalan: NLP algoritmlari yordamida o'quvchilarning insholari yoki esselari avtomatik tarzda baholanishi mumkin. Tahliliy tizimlar o'qituvchilarga o'quvchilarning nutqidagi asosiy kamchiliklarni aniqlash va ular uchun individual tuzatish strategiyalarini ishlab chiqishda yordam beradi. Tarjima tizimlari esa til o'rganish jarayonini ko'p tilli muhitda olib borish imkonini yaratadi, bu esa ta'limni yanada inklyuziv, moslashuvchan va barqaror qiladi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining istiqbollari: Kelgusida sun'iy intellekt asosida til o'rganish jarayonida adaptiv o'qitish tizimlarini yaratish, ko'p tillilikni rivojlantirish, nutq sintezi orqali real vaqt rejimida tarjima va muloqotni yo'lga qo'yish imkoniyatlari kengayadi. Shuningdek, learning analytics asosida har bir o'quvchining o'zlashtirish jarayonini monitoring qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqib, inson va mashina integratsiyasiga asoslangan ta'lim modelini shakllantiradi.

**Xulosa.** Umuman olganda, sun'iy intellekt texnologiyalari va kompyuter lingvistikasi til o'qitish metodikasida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ular yordamida til kompetensiyasi bosqichma-bosqich rivojlanadi, o'quvchilar esa bilimlarni

mustaqil va interaktiv tarzda egallaydi. O'qituvchi esa natijalarni ilmiy asosda boshqaradi. Natijada, sun'iy intellekt nafaqat texnologik taraqqiyot mahsuli, balki zamonaviy ta'lim konsepsiyasining ajralmas qismiga aylanmoqda. Tilni o'rganish va o'qitish jarayonida inson tafakkuri, til tizimi hamda mashina intellekti o'rtasidagi uyg'unlik ta'minlanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Xo'jayev A. Kompyuter lingvistikasi asoslari.
2. Duolingo Report, 2014.
3. Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt bo'yicha ilmiy maqolalar.
4. Internet manbalari va elektron platformalar.